

Date: 25th June-2026

JAMILA ERGASHEVANING “ZULFIZAR” QISSASIDA ZULFIZAR
OBRAZINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasi bosh qahramoni Zulfizar obrazining ruhiy olami va xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda qahramonning urush yillaridagi hayoti, oilaviy munosabatlari, hayotiy sinovlar jarayonida kechirgan ichki kechinmalari hamda ma’naviy-ruhiy o‘zgarishlari yoritilgan. Muallif tomonidan obrazning psixologik tasviri badiiy detallar, ichki monologlar va xotiralar vositasida ochib berilgani tahlil etiladi. Shuningdek, Zulfizar xarakterining shakllanish omillari, uning hayotga munosabati va qahramon ruhiyatidagi ziddiyatlar adabiy-estetik jihatdan tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Zulfizar obrazi, psixologik tasvir, ruhiy kechinma, xarakter evolyutsiyasi, ayol obrazi, badiiy psixologizm, ichki monolog, xotira, urush mavzusi.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE IMAGE OF ZULFIZAR IN JAMILA
ERGASHEVA’S NARRATIVE “ZULFIZAR”

Abstract: This article analyzes the spiritual world and character traits of Zulfizar, the protagonist of Jamila Ergasheva's novella “Zulfizar”. The work highlights the hero's life during the war years, family relationships, inner experiences during life's trials, and spiritual and psychological changes. The author analyzes how the psychological image of the character is revealed through artistic details, internal monologues, and memories. Also, the factors of the formation of Zulfizar's character, his attitude to life and the contradictions in the hero's psyche are studied from a literary and aesthetic point of view.

Keywords: Zulfizar's image, psychological image, mental experience, character evolution, female image, artistic psychologism, internal monologue, memory, war theme.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА ЗУЛЬФИЗАР В ПОВЕСТИ
ДЖАМИЛЫ ЭРГАШЕВОЙ “ЗУЛЬФИЗАР”

Аннотация: В данной статье анализируется духовный мир и особенности характера образа Зульфизара, главного героя повести Джамилы Эргашевой “Зульфизар”. В произведении освещены жизнь героя в годы войны, его семейные отношения, внутренние переживания в процессе жизненных испытаний, а также духовно-психологические изменения. Автор анализирует раскрытие психологического образа образа посредством художественных деталей, внутренних монологов и



Date: 25th June-2026

воспоминаний. Также с литературно-эстетической точки зрения исследуются факторы формирования характера Зулфизара, его отношение к жизни и противоречия в психике героя.

Ключевые слова: образ Зулфизар, психологический образ, душевные переживания, эволюция характера, образ женщины, художественный психологизм, внутренний монолог, воспоминания, тема войны.

Bugungi o'zbek nasrida inson ruhiyatini badiiy tadqiq etish, qahramonlarning ichki olami va kechinmalarini chuqur tasvirlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ayol obrazlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarni yoritish zamonaviy adabiyotning muhim xususiyatlaridan biridir. Jamila Ergashevaning bir qator asarlarida ham inson qalbi, ayol taqdiri, oilaviy munosabatlar va hayot sinovlari markaziy o'rin egallaydi. Xususan, yozuvchining "Zulfizar" qissasi ana shunday asarlardan biri bo'lib, unda bosh qahramonning murakkab hayot yo'li, ruhiy kechinmalari va ma'naviy olami keng tasvirlangan. Asarda Zulfizar obrazi orqali urush yillarining inson taqdiriga ta'siri, oilaviy munosabatlar, ayolning jamiyatdagi o'rni hamda inson qalbida kechadigan ziddiyatlar badiiy jihatdan talqin etiladi. Qahramon hayoti davomida duch kelgan sinovlar, yo'qotishlar va ruhiy iztiroblar uning xarakterini shakllantirib, ma'naviy kamolot bosqichlarini, oila, farzandlar haqidagi yangi tushunchalarini yuzaga chiqaradi. Qissada voqealar faqat tashqi hodisalar orqali emas, balki qahramonning ichki kechinmalari, xotiralari va ruhiy holati vositasida rivojlanadi. Shu sababli asar psixologik tasvirning yorqin namunalaridan biri sifatida e'tiborni tortadi. Muallif Zulfizar obrazining ruhiy olamini ochishda ichki monolog, xotira, portret va badiiy detal kabi tasvir vositalaridan samarali foydalanadi.

Asarning bosh qahramon obrazi murakkab hayotiy sinovlar orqali shakllangan ayol timsoli sifatida gavdalanadi. Muallif qahramonning tashqi faoliyatidan ko'ra uning ichki dunyosini tasvirlashga ko'proq e'tibor qaratadi. Shu bois asar davomida Zulfizarning ruhiy kechinmalari, iztiroblari, armonlari va kechikkan anglashlari voqealar rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Qissa Zulfizarning keksalik davridagi og'ir ruhiy zarba bilan boshlanadi. U qizi Soraning uyiga kutilmaganda kelib, kuyovining xiyonatiga guvoh bo'ladi. Mazkur sahna asarning eng kuchli dramatik nuqtalaridan biridir. Muallif qahramonning holatini *"yetmish ikki tomirini kuydirgan alanga tomog'iga tiqilganday bo'ldi"* tarzidagi tasvirlar orqali ifodalaydi. Bu yerda ruhiy zarba jismoniy azobga aylanadi. Natijada Zulfizar infarkt holatiga tushadi. Aslida esa bu infarkt birdan yuzaga kelgan kasallik emas, balki bir umr yig'ilib kelgan dardlarning portlashidir.

Muallif qahramonning hozirgi ruhiy holatini uning butun hayot yo'li bilan bog'laydi. Kasalxonadagi holat Zulfizar uchun o'z umriga nazar tashlash imkoniyatini yaratadi. Xotiralar oqimi orqali uning bolaligi, yoshlik davri va hayotdagi tanlovlari ochib boriladi. Zulfizarning xarakteri urush yillarida shakllanadi. Otasi va akalarining frontga ketishi, oilaning og'ir ahvoli, ketma-ket kelgan qora xatlar qahramonni erta ulg'aytiradi. Ayniqsa, akasi Mamarasulning halok bo'lgani haqidagi xabar uning ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Shu voqeadan keyin qahramonning dunyoqarashi o'zgaradi. U bolalik va yoshlik



Date: 25th June-2026

orzularidan uzoqlashib, hayotning achchiq haqiqatlariga yuzma-yuz keladi. Muallif qahramonning ichki iztiroblarini tashqi tasvirlar bilan uyg'unlashtirib beradi. Masalan, urush tufayli huvillab qolgan hovli, xarob uy, yolg'iz qolgan ona obrazlari Zulfizarning ruhiy bo'shlig'ini ham ifodalaydi. Qissadagi muhim jihatlardan biri Zulfizarning hayotga munosabatidir. U tabiatan qat'iyatli, bilimga chanqoq va intiluvchan ayol sifatida tasvirlanadi. Muallimlik faoliyati davomida maktabni obod qilishga intilishi, bolalar ta'limi uchun jon kuydirishi uning ijobiy fazilatlarini ko'rsatadi. Maktabning zax va qarovsiz holatini ko'rib, uni bolalar bilan birgalikda ta'mirlashi qahramonning tashabbuskorligini ochib beradi.

Biroq Zulfizar xarakterida ma'lum darajada g'urur va o'ziga ortiqcha ishonch kabi salbiy jihatlari ham mavjud edi. Bu jihat ayniqsa Jo'ra muallim obraziga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Jo'ra muallim urushning dahshatlarini boshidan kechirgan, samimiy va fidoyi inson bo'lsa-da, Zulfizar uni o'ziga munosib ko'rmaydi. U Jo'ra muallimning qalbidagi insoniy fazilatlarni emas, tashqi ko'rinishi va ijtimoiy mavqeini ko'proq baholaydi. Hatto uning muhabbat izhoriga nisbatan bepisand munosabat bildiradi. Biz buni asardagi: *"Buni Zulfizar yaxshi bilardi, ammo ming yaxshi odam bo'lsa ham yil o'n ikki oy rangi o'chib ketgan harbiy kiyimda bir oyog'ini sudrab yuradigan Jo'ra muallimni hech qachon o'ziga munosib ko'rmasdi. Erta-indin urush tugaydi. Otasi, akalari qaytib keladi. To'kin-sochin, yaxshi kunlar boshlanadi. Ular shaharga ko'chib ketishadi. Zulfizar baxtini o'sha yoqlardan topadi"* yoki *"Qarshisida yalang'och novdadek qaltirab turgan yigitga nisbatan ko'nglida zarracha rag'bat tuymadi. Uning diydasi qattiq edi"* kabi jumalardan bilib olishimiz mumkin. Bu holat qahramonning yoshligidagi ma'naviy yetilmaganligini ko'rsatadi. Keyinchalik hayot unga inson qadri tashqi ko'rinish yoki mansab bilan belgilanmasligini anglatadi.

Asarda Ulkan kampir obrazi Zulfizarning ma'naviy tayanchi sifatida tasvirlanadi. Kampirning nasihatlari va qarashlari qahramon uchun ma'lum ma'noda milliy qadriyatlar timsoli vazifasini bajaradi. Yosh Zulfizar ko'pincha momosining gaplariga qarshi chiqadi, ularni eskilik sarqiti deb hisoblaydi. Ammo umrining oxiriga borib aynan shu ayolning mehr-muhabbati va hayotiy donoligini chuqurroq anglay boshlaydi. Kasalxonada yotgan paytda tushida Ulkan kampirni ko'rishi ham bejiz emas edi. Bu epizod qahramonning ichki dunyosida kechayotgan ma'naviy uyg'unlash jarayonini ifodalaydi.

Shuningdek, qissada Oysulton xola obrazi ham muhim o'rin tutadi. U asarda o'zbek onalariga xos sabr, matonat va mehr-muhabbat timsoli sifatida gavdalanadi. Urush yillarida eri va o'g'illarini frontga kuzatgan, yillar davomida ularning yo'lini intizorlik bilan kutgan ona timsolida xalqning umumlashma qismati aks etadi. Muallif Oysulton xola obrazi orqali urushning eng katta og'irligi front ortida qolgan onalar zimmasiga tushganini ko'rsatadi. Oysulton xola qiyinchiliklarga qaramay oilani saqlab qolishga harakat qiladi. U umidsizlikka berilmaydi, farzandlari qaytib kelishiga ishonadi. Ayniqsa, urushdan o'g'li Mamarayimning qaytishi bilan bog'liq sahnalar ona qalbidagi sog'inch va cheksiz mehrning ta'sirchan ifodasidir. Muallif onaning quvonch va iztiroblarini tabiiy va hayotiy tarzda tasvirlaydi. Zulfizar xarakterining shakllanishida ham onaning o'rni katta. Qahramonning mehnatsevarligi, qat'iyatliliigi va mas'uliyat hissi ko'p jihatdan Oysulton



Date: 25th June-2026



xoladan meros bo'lib o'tgan fazilatlaridir. Biroq ona va qizning dunyoqarashi o'rtasida ma'lum tafovutlar ham mavjud. Oysulton xola milliy qadriyatlar va an'anaviy qarashlarga sodiq bo'lsa, Zulfizar zamonaviy fikrlashga intiladi. Shu sababli ular orasida ayrim masalalarda tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Masalan, Zulfizarning juhudga turmushga chiqishi, kiyinish uslubi, ishlash tartibi. Asar davomida Zulfizar ko'pincha onasining ayrim qarashlariga tanqidiy munosabat bildiradi. Ammo umrining keyingi bosqichlarida u onasining hayotiy tajribasi va donoligini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu holat qahramonning ma'naviy kamolotida muhim bosqich hisoblanadi. Oysulton xola obrazi qissada faqat ona sifatida emas, balki hayot sinovlarida chiniqqan, oilani birlashtirib turuvchi ma'naviy tayanch sifatida ham namoyon bo'ladi. Muallif ushbu obraz orqali o'zbek onalarining sabr-bardoshi, farzandlariga bo'lgan fidoyiligi va ruhiy qudratini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi.

Qissaning eng ta'sirchan jihatlaridan biri shundaki, Zulfizarning qizi Sora onasiga mehribon, e'tiborli va sadoqatli farzand sifatida tasvirlanadi. U hatto shifokor bo'lib ishlayotgan paytida ham onasini bir daqiqa yolg'iz qoldirishni istamaydi. Biroq o'g'il obrazi mutlaqo boshqacha talqin qilinadi. Asarda Zulfizarning o'g'li onasidan ma'naviy jihatdan uzoqlashgan, ona mehrining qadriga yetmaydigan inson sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat bevosita Zulfizarning tarbiya masalasidagi ayrim kamchiliklari bilan bog'liq. U umr bo'yi farzandlariga barcha sharoitlarni yaratishga intiladi, biroq ba'zan moddiy ta'minot va muvaffaqiyatni ma'naviy tarbiyadan ustun qo'yadi. Natijada o'g'li bilan o'rtadagi ruhiy yaqinlik zaiflashadi. Asarda Zulfizarning o'zi ham bir necha bor kuyovini o'g'lidan ko'ra mehribonroq inson sifatida eslaydi. Bu esa qahramon qalbida o'g'liga nisbatan yashirin armon mavjudligini ko'rsatadi. Demak, qissadagi o'g'il obrazi faqat bir personaj emas, balki qahramonning kechikkan afsuslari va ruhiy iztiroblarini ochishga xizmat qiluvchi badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Jamila Ergasheva Zulfizar obrazini ideal qahramon sifatida emas, balki yutuq va kamchiliklari birlashgan murakkab xarakter sifatida yaratadi. Uning eng katta xatolaridan biri insonlarni tashqi mezonlar orqali baholashidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek bu holat, ayniqsa, Jo'ra muallimga munosabatida yaqqol ko'rinadi. Jo'ra muallim samimiy, fidoyi va halol inson bo'lishiga qaramay, Zulfizar uni o'ziga munosib deb bilmaydi. Qahramonning yana bir xatosi haddan tashqari mustaqillikka intilishida namoyon bo'ladi. U ko'pincha boshqalarning fikriga quloq solmaydi, faqat o'z qarashlarini to'g'ri deb hisoblaydi. Bu esa ayrim hollarda yaqinlari bilan ma'naviy masofa paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, Moskvada birga o'qigan Og'amurod Saparov, birinchi turmush o'rtog'i Nodir bilan bog'liq sahnalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asar yakuniga kelib Zulfizar umrining katta qismi ortda qolgan bir paytda hayotga boshqacha nazar bilan qaray boshlaydi. U inson uchun mansab, obro' yoki moddiy farovonlik emas, balki mehr, sadoqat va oila qadri muhimroq ekanligini anglaydi. Shu jihatdan qahramonning kechikkan anglashlari asarning falsafiy mazmunini yanada boyitadi. Yozuvchi Zulfizar timsolida inson umr davomida turli xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini, ammo eng muhimi o'sha xatolarni anglab yetish va ulardan ma'naviy xulosa chiqarish ekanligini ta'kidlaydi.

Date: 25th June-2026

Xulosa qilib aytganda, Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasi inson ruhiyatini chuqur tasvirlagan psixologik asarlardan biridir. Asarda Zulfizar obrazi orqali sho‘ro va urush davri, undan keyingi yillarda yashagan ayollarning murakkab taqdiri, ichki iztiroblari hamda ma’naviy kechinmalari badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan. Qahramon hayoti davomida turli sinovlarga duch keladi, biroq aynan shu sinovlar uning xarakterini shakllantiradi va hayot haqidagi qarashlarini o‘zgartiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zulfizar obrazi faqat bir inson taqdirining emas, balki o‘z davrining ijtimoiy va ma’naviy muammolarini aks ettiruvchi umumlashma obraz sifatida ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldoshbekov B. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
4. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
5. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
6. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
7. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
8. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002.
9. Ziyo.Uz kutubxonasi.